

Nasibaxon Axmedova Xasanovna

Fargʻona davlat universiteti

Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrası oʻqituvchisi

Sayramov Fayzullo Baratjon oʻgʻli

Fargʻona davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshqaruv qarorlari, qaror qabul qilish jarayonlari, boshqaruv funkssiyalari mohiyati yoritib berilgan.*

Kalit soʻzlar: *qaror, boshqaruv, diagnostika, alternativ baholash, axborotlarning cheklanganligi, funksiya, vazifa.*

Boshqaruv jarayoni Menejment butun boshqaruv tizimining uzluksiz amal qilishi jarayonini ifodalaydi. U mehnat jarayonining barcha xususiyatlariga ega. Umuman menejment jarayonini texnologiya (qanday amalga oshiriladi), tashkil etish (kim va qanday tartibda) nuqtai-nazaridan tavsiflash mumkin.

Boshqaruv qarorlari

Qaror - bu bajarilishi lozim boʻlgan ishning aniq bir yoʻlini tanlab olishdir. Boshqacha qilib aytganda, qaror - bu u yoki bu yoʻlni tanlab olishda bir toʻxtamga yoki muayyan bir fikrga kelishdir.

Tashkiliy qaror - bu rahbar egallab turgan lavozimi boʻyicha vazifalarni bajarish uchun qilinishi kerak boʻlgan tanlov. Tashkiliy qaror maqsadi tashkilot oldida turgan vazifalarni bajarishni taʼminlash. Shuning uchun eng samarali tashkiliy qaror, oxirgi maqsadga erishishga eng koʻp hissa qoʻshadigan va haqiqatda amalga oshiriladigan tanlov hisoblanadi.

Qaror qabul qilish jarayoni

- Muammo diagnostikasi
- Muammo diagnostikasi
- Muammo diagnostikasi
- Alternaturalarni baholash
- Alternativani tanlash

Qaror qabul qilish jarayoni

1. Muammo diagnostikasi

Muammoni yechishda birinchi qadam toʻlik va toʻgʻri diagnoz qoʻyish. Muammoni koʻrib chiqishning ikki uslubi mavjud. Birinchisi boʻyicha qoʻyilgan maqsadlarga erishilmaganda muammo deb hisoblanadi. Lekin koʻpincha rahbarlar faqat nimadir sodir boʻlishi kerak-u, lekin sodir boʻlmagan holatlarni muammo sifatida koʻradilar

2. Qaror qabul qilishning mezonlari va cheklanmalarini aniqlash

Muammoni diagnostika qilish paytida uni yechish maqsadida shuni aniq bilish kerakki, u bilan aynan nima qilib bo‘ladi. Yirik tashkilot uchun cheklanmalar kichik tashkilotdagi cheklanmalarga nisbatan kamroq. Rahbar standartlarni aniqlab olib, u bo‘yicha esa tanlov alternativ variantlarini baholashi kerak bo‘ladi. Bu standartlarni qaror qabul qilishning mezonlari deb atash qabul qilingan

3. Alternaturalarni aniqlash

Bunda muammo sababini bartaraf etadigan barcha mumkin bo‘lgan harakatlarni mumkin qadar yuzaga chiqarish kerak

4. Alternaturalarni baholash

Faqatgina barcha g‘oyalar ro‘yxati tuzilganidan keyin har bir alternativani baholashga o‘tish kerak

5. Alternativani tanlash

Rahbar ancha ijobiy oqibatlariga olib keladigan alternativani tanlaydi

- Qaror qabul qilishdagi omillar Rahbarning shaxsiy baholashlari
- Qaror qabul qilish muhiti
- Vaqt va o‘zgaruvchan muhit
- Axborotlarning cheklanganligi
- Hatti-harakatlarning cheklanganligi
- Salbiy oqibatlar

Boshqaruv qarorlarining turlari Strategik qaror maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega. U yuqori boshqaruv organlari tomonidan tub va istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish maqsadlarida qabul qilinadi.

Taktik qarorlar maqsadga erishishning vosita va usullari xususidagi joriy, tezkor qarorlardir.

Umumiy qarorlar bir xil muammoga daxldor bo‘lib, barcha bo‘g‘inlar uchun birdek amal qiladi.

Maxsus qarorlar tor doiradagi muammoga taalluqli bo‘lib, korxonaning muayyan bir bo‘limi yoki bir guruh xodimlari yuzasidan qabul qilinadi.

Stereotip qarorlar odatda qat‘iy yo‘riqnomalar, me‘yoriy hujjatlar doirasida qabul qilinadi.

Tashabbusli qarorlar o‘z tavsifiga ko‘ra notovarlik mazmuniga ko‘ra esa istiqbolni nazarda tutadigan qarorlardir.

An’anaviy qarorlar - bu odatiy vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlardir.

Tavsiyali qarorlar o‘z mohiyatiga ko‘ra tashabbusli qarorlarga yaqin bo‘lib, ularda korxonada faoliyatini yaxshilash borasidagi tavsiyalar o‘z aksini topadi.

Aniq qarorlar to‘la-to‘kis axborot mavjud bo‘lgan holdagina qabul qilinadi.

Noaniq qarorlar - bu tavakkal bilan - to‘la bo‘lmagan axborotga asoslanib qilinadigan qarorlardir

Tezkor (operativ) qaror kechiktirmay ijro etish uchun chiqariladi.

Muntazam qarorlar belgilangan muddatlarda chiqariladi.

Konsensus – bu qarorlarni ishlab chiqish jarayonida barcha baxsli masalalar va turli-tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelish yoki kelishishdir.

Funksiya va vazifa

"Funksiya" —bu lotincha soʻz boʻlib, biror kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi, vazifasi degan maʼnolarni bildiradi.

"Vazifa" — bu amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim boʻlgan masala, oʻrganilishi lozim boʻlgan, koʻzda tutilgan maqsad, yoki biror-bir topshiriq, xizmat, yumush, xizmat lavozimi, mansab, amal demakdir.

"Funksiya" tushunchasi "vazifa" tushunchasiga nisbatan torroq, maʼnoga ega. Zero, funksiya faqat oʻz faoliyat doirasidagi vazifalarni oʻz ichiga oladi.

"Vazifa" esa oʻz faoliyat doirasidan tashqarida ham boʻlishi mumkin.

Boshqaruv funksiyasi deganda u yoki bu obʼyektning boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bnr turdagi ishlar majmui tushuniladi.

Boshqarish funksiyalari mohiyati

1. Rejalashtirish funksiyasi

Boshqarishning asosiy va dastlabki funksiyasidir. Har qanday boshqarish reja tuzishdan boshlanadi. Bu rejada boshqaruv maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish muddatlari belgilanadi, vazifalarni amalga oshirish usullari ishlab chiqiladi, xalq xoʻjaligi boʻgʻinlarining oʻzaro aloqalari oʻrnatiladi. Rejalashtirishning umumiylik xususiyati shundaki, bunda har bir boshqaruv xodimi oʻzining shaxsiy ishini rejalashtiradi, oʻz ish joyidagi faoliyati koʻrsatkichlarini ishlab chiqadi, rejalarni qanday bajarayotganini nazorat qilishni uyushtiradi.

2. Tashkil qilish funksiyasi.

Bu funksiya boshqaruv obekti doirasida barcha boshqariluvchi va boshqaruvchi jarayonlarning uyushqoqligini taʼminlaydi.

3. Muvofiqlashtirish va tartibga solish funksiyasi.

Rejalashtirish boshqarishning strategiyasi hisoblansa, muvofiqlashtirish boshqarishning taktik masalalarini hal qiladi. Muvofiqlashtirish mablagʻlarni tejash maqsadida boshqaruvdagi parallelizm va bir-birini takrorlashni bartaraf qilish imkonini beradi.

Tartibga solish muvofiqlashtirishning davomi boʻlib , u sodir boʻlib turadigan oʻqishlarni bartaraf qilish yoʻli bilan ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishni maqsad qilib quyadi. Uning yordami bilan vujudga kelishi ehtimoli tugʻilgan oʻqishlarning oldi olinadi.

4. Nazorat funksiyasi.

Bu funksiyaning maqsadi "tutib olish", "aybini ochish" "ilintirish" emas, balki boshqaruv obekti sodir boʻlayotgan jarayonlarni hisobga olish, tekshirish , tahlil qilish va maʼlum tartibda shu obekt faoliyatini oʻz vaqtida sozlab turishdir. Taʼsirchan

nazoratni tashkil qilish har bir rahbarning funksional ishidir. Muntazam nazorat yo‘q joyda yuqori pirovard natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Qarorlarni ijrosini uyushtirish

Qarorlarni bajarish - bu oqibat natijasida yuqori bo‘g‘inda qabul qilingan rejalarni, shuningdek shu rejalarni asosida quyi bo‘g‘inlar (sex, uchastka, brigada, smena, har bir xodim) uchun tuzilgan reja yoki topshiriqlarni bajarish demakdir. Qaror eng avvalo buyruq yoki farmoyish tarzida rasmiylashtiriladi, so‘ngra u ma‘muriy hujjat tusini oladi. Unda aniq ijrochilar, bajarish muddatlari, nazorat qilish usullari va hokazolar ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Qarorning bajarilishiga rahbarlik qilish - bu firma, korxonalar, sex, uchastka, brigadaning boshqarish apparati tomonidan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida rahbarlik qilish bo‘yicha aniq masalalarni hal etish demakdir.

Boshqarish jarayonidagi oxirgi bosqich - bu qabul qilingan qaror ijrosini nazorat qilishdir.

Nazorat - bu qayta (javob) aloqa shakli hisoblanib, yuqori boshqaruv organi tomonidan chiqarilgan buyruq, farmoyish va belgilangan rejalarning joylarda bajarilish darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotni aniqlash usulidir.

Nazorat funksiyasi rahbarning eng muhim vazifasidir. Rahbar qabul qilinadigan qarorlarning tashabbuskori bo‘lganligi sababli u shu qarorlarning bajarilishi ustidan nazoratni tashkil qilishning ham tashabbuskori bo‘lishi kerak.

REFERENCES:

1. Тулчинский Г.Л. Менеджмент в сфере культуры. (Электрон ресурс): учебное пособие. – Москва, Планета музыки, 2013. -544 с.
2. Akhmedova, N. K., & ugli HOMIDOV, K. K. (2022). Institutional Basis of Digitalization of Management Activity of Food Industry Enterprises in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 34-38.
3. Маннопова, М. С. (2023). ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЛОДООВОЦНЫХ КЛАСТЕРОВ УЗБЕКИСТАНА И ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ИМИ. *Scientific Impulse*, 1(10), 989-997.
4. Sultanbekovna, M. M. (2023). DISTINCTIVE FEATURES OF THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR THE MANAGEMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, 3(3).
5. Akhmedova, N. K. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO ASSESSING THE POTENTIAL OF INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TERRITORIES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1053-1056.

6. Рахимов, Д. (2019). Свободно-экономические зоны-расширение экспортного потенциала Узбекистана. *Архивариус*, (12 (45)), 42-44.
7. Xasanovna, A. N. (2023). QISHLOQ XO 'JALIGI TARAQQIYOTIDA MEVA-SABZAVOT EKSPORTINING O 'RNI VA AHAMIYATI. *World scientific research journal*, 15(1), 71-78.
8. Raximov, D. (2021, December). Determined criteria for diversification in industrial enterprises. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 60-64).
9. Ахмедова, Н. Х. (2023). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЛОДООВОЩНОГО ЭКСПОРТА В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(7), 37-45.
10. Mannopova, M. S. (2019). Oziq-ovqat sanoati ravnaqining beqiyos ahamiyati. *O 'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 1(1), 44-47.
11. Маннопова, М. С. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ПЛОДООВОЩНЫМИ КЛАСТЕРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Scientific Impulse*, 1(9), 512-519.
12. Рахимов, Д. Ш. (2021). САНОАТ ИҚТИСОДИЁТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИЛАЁТГАН МАҲСУЛОТЛАРНИ ДИВЕРСИКАЦИЯЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Scientific progress*, 1(6), 505-511.
13. Рахимов, Д. Ш. (2022). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN PRIORITY DIRECTIONS OF INDUSTRY DIVERSIFICATION САНОАТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ РОЛИ. *INFORMATION TECHNOLOGIES AND MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION AND SCIENCES*, 276.
14. Рахимов, Д. (2021). DETERMINED CRITERIA FOR DIVERSIFICATION IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Scienceweb academic papers collection*.
15. Rahmonaliyevich, K. D. (2020). Choosing the optimal rule of monetary policy, taking into account changes in the main macroeconomic indicators. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(12), 1351-1356.
16. Rakhimov, D. S. (2023). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN PRIORITY DIRECTIONS OF INDUSTRY DIVERSIFICATION. Publishing House "Baltija Publishing".
17. Рахимов, Д. Ш. (2023). МИЛЛИЙ САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ДИВЕРСИФИКАЦИЯНИ ҚЎЛЛАШ СИФАТИНИ АНИҚЛАШНИНГ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 40(2), 18-22.

18. Rakhmonaliyevich, K. D. (2023). UNIVERSITETNING YANGI MODEL: ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'SIRI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 983-991.
19. Рахимов, Д. Ш. (2020). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА. In МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ (pp. 523-527).
20. Raximov, D. (2021, December). Determined criteria for diversification in industrial enterprises. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 60-64).
21. Рахимов, Д. (2021). DETERMINED CRITERIA FOR DIVERSIFICATION IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection.
22. Khakimov, D. R. (2023). WAYS TO IMPROVE THE MANAGEMENT OF AN EDUCATIONAL INSTITUTION IN THE CONDITIONS OF THE DEVELOPMENT OF MARKET RELATIONS. Publishing House “Baltija Publishing”.
23. Raximov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFYING INNOVATION PROCESSES IN THE INDUSTRY NETWORK. World Economics and Finance Bulletin, 16, 107-110.
24. Raximov, D. S. (2021). DIVERSIFIKATSIYA HUDUDLAR SANOATNI MUVOZANATLI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH YO ‘NALISHLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 199-207.
25. Рахимов, Д. (2021). DIVERSIFIKATSIYA HUDUDLAR SANOATNI MUVOZANATLI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH YO ‘NALISHLARI. Scienceweb academic papers collection.
26. Rakhimov, D. S. (2023). EFFICIENCY LEVELS OF INDUSTRY DEVELOPMENT IN IMPLEMENTATION OF STRUCTURAL REFORMS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11), 8-12.
27. Рахимов, Д. Ш. (2023). САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИ. Journal of new century innovations, 40(2), 23-30.
28. Rakhimov, D. S. (2023). EFFICIENCY LEVELS OF INDUSTRY DEVELOPMENT IN IMPLEMENTATION OF STRUCTURAL REFORMS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11), 8-12.
29. Рахимов, Д. Ш. (2023). САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИ. Journal of new century innovations, 40(2), 23-30.
30. Рахимов, Д. Ш. (2023). МИЛЛИЙ САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ДИВЕРСИФИКАЦИЯНИ ҚЎЛЛАШ СИФАТИНИ АНИҚЛАШНИНГ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Journal of new century innovations, 40(2), 18-22.